



YUNESKO ishlari bo'yicha
O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi

National Commission
of the Republic of Uzbekistan for UNESCO

O'zbekiston, Toshkent, 100084, Amir Temur shoh ko'chasi, 107 B uy / 107 B, Amir Temur Avenue, Tashkent, 100084, Uzbekistan
tel: (+998-90) 186-06-13 e-mail: info@unesco.uz e-xat: ncu@exat.uz

2022-yil 24-iyun № 123/22

Xalq talimi vazirligiga
Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligiga

Ma'lumot uchun: Tashqi ishlar vazirligiga

YUNESKO ishlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi nomidan o'z hurmatimizni izhor etib, quyidagilarni ma'lum qilamiz.

Joriy yilning avgust oyida YUNESKOning Jakarta shahridagi vakolatxonasi Siya Kualalumpur universiteti (Indoneziya) bilan hamkorlikda va Yaponiyaning Ishonch fondi moliyaviy ko'magida "Ekologik barqarorlikni oshirish va tabiiy ofatlar xavfini kamaytirish bo'yicha mobil ilovalarni ishlab chiqish" mavzusida bir qator raqamli ko'nikmalar oshirish bo'yicha o'quv mashg'ulotlarni tashkil etishini e'lon qildi (YUNESKO maktubi va tarjimai ilova etilmoqda).

O'quv mashg'ulotni o'tkazishdan asosiy maqsad mintaqadagi a'zo-davlatlarning barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishda ko'maklashish va ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematika sohalarida ayol va qizlarni malakasini oshirishdan iborat.

O'quv mashg'ulot ingliz tilida olib boriladi va 25 soatlik intensiv amaliy mashg'ulotlardan iborat bo'ladi. O'quv mashg'ulotdan so'ng, 2022-yilning sentyabr-oktabr oylarida mobil ilovalar bo'yicha mintaqaviy tanlov tashkil etiladi.

O'quv mashg'ulotida ishtirok etish uchun talablar:

- 13-18 yoshdagi o'quvchi va talabalar bo'lishi,
- Mobil telefon va internet aloqasiga ega bo'lishi,
- Kompyuter dasturi bo'yicha minimal boshlang'ich bilimga ega bo'lish.

O'quv mashg'ulotda ishtirok etishni istagan talabalar quyidagi havola orqali ro'yxatdan o'tishlari lozim:

Yakka tartibda: [bit.ly/MobileAppTraining-Reg](https://forms.microsoft.com/r/iDcebxZ9yU)

Jamoa tartibida: <https://forms.microsoft.com/r/iDcebxZ9yU>

Shu munosabat bilan, yuqorida qayd etilgan o'quv mashg'uloti bo'yicha ma'lumotni ta'lim tizimi muassaslariga tarqatishda amaliy yordam berishingizni so'raymiz.

Ko'rib chiqish uchun yuborilmoqda.

Ilova: 15 varaq.

Bosh kotib o'rinbosari

S.B Mallaxanov